



Германия Федератив Республикаси
Элчихонаси
Тошкент

Sh.Rashidov ko'chasi, 15; 100017 Toshkent
tel: +998 71 120 84 86; faks: +998 71 120 84 80

Viza bo'limining ish vaqtlari:

faqat oldindan internet orqali ro'yxatga yozilish asosida,
dushanba-juma kunlari soat 8.00 dan 12.00 gacha,
Elchixona qo'shimcha qabul vaqti belgilashga haqli.

Shengen vizasini so'rash uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati

Germaniya Federativ Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi O'zbekistonda doimiy yashovchi, safar manzili **Germaniya, Avstriya, Finlandiya, Shvetsiya** yoki **Ispaniya** bo'lgan arizachilarga viza beradi. Hozirda Germaniya elchixonasi tomonidan **Daniyaga** viza berish **vaqtincha to'xtatilgan**. Daniyaga safar qilmoqchi bo'lgan shaxslar Shengen vizasini olish uchun faqat Daniyaning Moskvadagi elchixonasiga hujjat topshirishlari mumkin.

Viza olish uchun kerakli hujjatlarni topshirish 2013 yil 1 mart dan boshlab internet orqali ro'yxatga yozilish asosidagina mumkinligini inobatga olishingizni so'raymiz. Batafsil ma'lumot „[Qabulga yozilish tizimi haqidagi eslatma](#)“ da keltirilgan.

Viza kodeksiga binoan viza so'rovnolarini ko'rib chiqish muddati **15 kundan oshmasligi** kerak. Odatda bu muddat **bir haftani** tashkil etadi. **Elchixona safar boshlanishidan o'z vaqtida hujjatlarni taqdim etishni tavsiya qiladi.**

Viza talabnomasi bilan quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- **Pasport (so'nggi 10 yil ichida berilgan, kamida ikkita viza uchun bo'sh sahifaga ega bo'lishi hamda uning amal qilish muddati so'ralayotgan viza muddati tugagandan keyin yana kamida uch oyni tashkil etishi shart) va uning nusxasi;**
- **2 dona yangi biometrik fotosurat;**
- **bir nusxada batafsil to'ldirilgan va arizachi tomonidan imzolangan viza so'rovnosi blanki (Shengen vizasi uchun);**
- **safar muddatini to'liq qoplagan, barcha Shengen davlatlarida amal qiladigan hamda qoplama miqdori 30.000 yevrodan kam bo'lmagan, shuningdek, 15 kunlik qo'shimcha muddatni o'z ichiga olgan tibbiy sug'urta polisi. Qoidaga binoan, tibbiy sug'urta shartnomasi O'zbekistonda Shengen shartnomasiga a'zo davlatlarning Toshkentdagi vakolatxonasida akkreditatsiyadan o'tgan kompaniyalar bilan tuzilgan bo'lishi kerak. Sug'urta himoyasi, shuningdek, kredit kartochka egalari ko'rsatilayotgan xizmat turlaridan biri sifatida tasdiqlanishi yoki polis Shengen davlati hududida taklif qiluvchi shaxs tomonidan ham tuzilishi mumkin (sug'urtalash miqdorining tasdiq'i bilan);**
- **mehnat faoliyatini tasdiqlovchi, egallab turgan lavozim va oylik maoshi haqida ma'lumotnoma, mehnat daftarchasi, ish beruvchining xizmat safariga yozma ruxsatnomasi yoki mehnat ta'tili berilishi haqida ma'lumotnoma; firma egalari uchun - firmaning hokimiyatda ro'yxatdan o'tganligi haqida guvohnomasi, litsenziyasi va nizomi nusxalari bilan;**
- **O'zbekistonda yashovchi yaqin oila a'zolarining hujjatlari asli (masalan, nikoh to'g'risida guvohnoma, bolalarning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalari, pasporti v.h) va ushbu hujjatlarning bittadan nusxasi.**

Safar maqsadiga qarab yuqorida sanab o'tilgan hujjatlarga qo'shimcha tarzda **quyidagi hujjatlarning asli va bittadan nusxasi** taqdim etilishi lozim:

1. Xizmat safarlari uchun

- Germaniyadan yoki Germaniya elchixonasi vakil bo'lgan Shengen shartnomasiga a'zo davlatdan yuborilgan, firma blankidagi taklifnoma. U taklif qilingan shaxsning to'liq ismi sharifi, tug'ilgan sanasi, rejalashtirilgan safarning maqsadi va muddati, safar davomida yashash joyining manzili, shuningdek taklif qilayotgan tarafning *Biz Germaniyada vaqtincha bo'lish haqidagi qonunning 66–68 moddalariga (yoki elchixonasi vakil bo'lgan Shengen shartnomasiga a'zo davlatning shunga o'xshash qonuniy asosi) asoslangan xolda barcha xarajatlarni o'z zimmasiga olamiz* kabi jumlani o'z ichiga olgan bo'lishi lozim
- taklif qilayotgan firma yoki korxonaning berilgan sanasi olti oydan oshmagan savdo reestridan ko'chirmasi
- alternativ ravishda: safarni **moliyalashtirish** manbai: qayta tekshirish imkonini beruvchi bank **hisob raqamidan ko'chirma, bank ma'lumotnomasi** yoki xizmat safari uchun ish beruvchining **kafolat xati**. Bunday xollarda ish beruvchining moliyaviy jixatdan ta'minlangani shubha uyg'otmasligi lozim. Ish beruvchining moliyaviy ahvoli korxonaning so'nggi olti oylik xisob raqamidan ko'chirma orqali isbotlanishi lozim
- taklif qiluvchi taraf hamda arizachi o'rtasida **hamkorlik aloqalari** mavjudligini tasdiqlovchi hujjat, masalan: xatlar, shartnomalar, buyurtmalar, bojxona hujjatlari va hokazo.

2. Mehmonga borish uchun

- safar maqsadini isbotlovchi xujjat (qarindoshlik rishtalarini tasdiqlovchi xujjat, masalan tug'ilganlik va nikoh haqidagi guvohnoma nusxalari)
- safar manzilini tasdiqlovchi kafolat xati yoki asl nusxadagi norasmiy taklifnoma. Safar moliya harajatlari arizachi tomonidan qoplanadigan hollarda: taklif qiluvchi shaxsning pasport nusxasi (agar taklif qiluvchi Germaniya Federativ Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, uning Germaniyada yashash uchun berilgan ruxsatnomasidan nusxa) va uning ro'yxatda turganligi haqida ma'lumotnoma (Meldebescheinigung)
- safarni moliyalashtirish manbai (qayta tekshirish imkonini beruvchi bank hisob raqamidan ko'chirma, safar uchun xorijiy valyutada yetarli miqdorda mablag' borligini tasdiqlovchi bank ma'lumotnomasi. Mavjud mablag' Germaniyada bo'lish uchun kuniga kamida 45 yevrodan to'g'ri kelishi lozim va bu miqdor Germaniya vakil bo'lgan Shengen shartnomasiga a'zo boshqa davlatda bo'lish uchun boshqacha bo'lishi mumkin;
- arizachining mablag'i safar uchun yetarli bo'lmagan holatda: Germaniyada vaqtincha bo'lish to'g'risidagi qonunning 66–68 moddalariga asoslangan, taklif qiluvchi shaxsning moliyaviy ahvoli (moliyalashtirish imkoniyati borligi tasdiqlangan yoki kamida asoslangan bo'lishi lozim) aniq ko'rsatilgan va Germaniyadagi xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha mas'ul idora tomonidan tasdiqlangan kafolat xati (Germaniya Federativ Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi vakil bo'lgan Shengen davlatidan ham shunga o'xshash taklifnoma) va uning nusxasi;

Nafaqadagi shaxslar uchun: pensiya guvohnomasi va uning nusxasi, shuningdek qo'shimcha daromadlarni tasdiqlovchi hujjatlar, masalan ijara yoki qarindoshlarning pul o'tkazmalari orqali olinayotgan daromadlar.

Bolalar, o'quvchilar va talabalar uchun:

- o'qish joyidan ma'lumotnoma, reyting daftarchasi, talabalik guvohnomasi va ularning nusxalari;
- maktab yoshidagilar yoki talabalar uchun o'quv muassasasining safarga ruxsatnomasi;
- tug'ilganlik haqida guvohnoma va uning nusxasi (balog'atga yetmaganlar uchun).

Mahalliy qonunchilikka asosan:

- ☞ **yolg'iz yoki ota-onasining biri bilan safarga chiqayotgan bolalar uchun:** ota- onasining ikkisi ham vasiylik huquqiga ega ammo ularning hamrohligisiz safarga chiqayotgan bolalar

uchun ota- onasining notarius tomonidan tasdiqlangan safar uchun ruxsatnomasi; ota- onasining biri bilan safarga chiqayotgan bolalar uchun: safarga bormayotgan otasi yoki onasining notarius tomonidan tasdiqlangan ruxsatnomasi yoki vasiylik huquqiga boshqa shaxs ega emasligini tasdiqlovchi hujjat (o'lim to'g'risida guvohnoma, bola tarbiyasi uchun faqat bir kishi mas'ulligini tasdiqlovchi, nikohni bekor qilish haqidagi sud qarori).

3. Tranzit

- aviachipta yoki uning bronni nusxasi bilan;
- safar mo'ljallanayotgan davlat vizasi. Agar u davlatga viza olish zarurati bo'lmasa, buni tasdiqlovchi hujjat;
- safardan ko'zlangan maqsadni asoslovchi hujjat.

4. Sayyohlik (Turizm)

- aviachipta bronni va mehmonxona harajatlari oldindan to'liq to'langanligi haqida tasdiqnoma; safar sayyohlik agentligi yordamida tashkillashtirilgan hollarda pul to'langanligini tasdiqlovchi vaucher (pul o'tkazmasini amalga oshirganlik haqida chek) hamda ularning nusxalari;
- safarni moliyalashtirish manbai (qayta tekshirish imkonini beruvchi bank hisob raqamidan ko'chirma, safar uchun xorijiy valyutada yetarli miqdorda mablag' borligini tasdiqlovchi bank ma'lumotnomasi. Mavjud mablag' Germaniyada bo'lish uchun kuniga kamida 45 yevrodan to'g'ri kelishi lozim va bu miqdor Germaniya vakil bo'lgan Shengen shartnomasiga a'zo boshqa davlatda bo'lish uchun boshqacha bo'lishi mumkin)

5. Ko'rgazma qatnashchilari va ularga tashrif buyuruvchilar:

- ko'rgazmaga kirish chiptasi
- Germaniyadan yoki Germaniya elchixonasi vakil bo'lgan Shengen shartnomasiga a'zo davlatdan yuborilgan, firma blankidagi taklifnoma. U taklif qilingan shaxsning to'liq ismi sharifi, tug'ilgan sanasi, rejalashtirilgan safarning maqsadi va muddati, safar davomida yashash joyining manzili, shuningdek taklif qilayotgan tarafning *Biz Germaniyada vaqtincha bo'lish haqidagi qonunning 66–68 moddalariga (yoki elchixonasi vakil bo'lgan Shengen shartnomasiga a'zo davlatning shunga o'xshash qonuniy asosi) asoslangan holda barcha xarajatlarni o'z zimmasiga olamiz* kabi jumlaning o'z ichiga olgan bo'lishi lozim
- taklif qilayotgan firma yoki korxonaning berilgan sanasi olti oydan oshmagan savdo reestridan ko'chirmasi
- alternativ ravishda: safarni **moliyalashtirish** manbai: qayta tekshirish imkonini beruvchi bank **hisob raqamidan ko'chirma, bank ma'lumotnomasi** yoki xizmat safari uchun ish beruvchining **kafolat xati**. Bunday xollarda ish beruvchining moliyaviy jixatdan ta'minlangani shubha uyg'otmasligi lozim. Ish beruvchining moliyaviy ahvoli korxonaning so'nggi olti oylik hisob raqamidan ko'chirma orqali isbotlanishi lozim

Shengen va tranzit vizalari uchun hujjatlarni ko'rib chiqish **konsullik badali** 60,- yevroni tashkil etadi. Olti yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 35,- yevro.

Quyidagi shaxslar tegishli hujjatlarni taqdim etgan hollarda viza badalini to'lashdan ozod etiladi:

- Germaniya fuqarosining turmush o'rtog'i
- balog'at yoshiga yetmagan, hamda Germaniya fuqaroligiga ega bo'lgan bolalar otalari, shuningdek Germaniya fuqarosining balog'atga yetmagan farzandi
- Yevropa Ittifoqiga a'zo davlat fuqarosining turmush o'rtog'i*
- Yevropa Ittifoqiga a'zo davlat fuqarosining yoki uning turmush o'rtog'ining* farzandi
- 6 yoshgacha bo'lgan bolalar

*Yevropa ittifoqiga a'zo davlat fuqarosi = erkin harakatlanish huquqiga ega shaxs, masalan Germaniyada yashovchi Frantsiya fuqarosi, ammo Germaniyada yashovchi Germaniya fuqarosi bu qoidadan mustasno

To'lov amaldagi kursga muvofiq **faqat AQSH dollarida** amalga oshiriladi. Faqat 1996 yildan keyin chiqarilgan, yaxshi holatdagi, muhr va yozuvlarsiz kupyuralar qabul qilinadi.

Viza so'rovnomasiga **rad javobi berilganda, to'langan konsullik badali qaytarilmaydi.**

Eslatma:

- O'zbekistonda istiqomat qiluvchi chet el fuqarolari amal qilish muddati so'ralayotgan viza muddati tugagandan keyin kamida uch oy amal qiladigan, O'zbekistonda vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma yoki O'zbekiston vizasiga ega bo'lishlari shart;
- Finlandiya, Shvetsiya va Ispaniyadan notarius orqali tasdiqlangan taklifnomalar ingliz yoki nemis tilida taqdim etilishi lozim.

Hujjatlarni to'liq tartibda taqdim etmaslik yoki viza talabnomasiga taaluqli bo'lgan hujjatlarga oydinlik kiritishda ko'maklashishdan bosh tortish viza talabnomasiga rad javobi berilishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar ro'yxati to'liq va batafsilligiga elchixonaga kafolat bermaydi. Ma'lum sabablarga ko'ra qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin. Talab qilingan barcha hujjatlarning to'liq taqdim etilishi viza olishga qonundan da'vo qilishni ko'zda tutmaydi.